

ISSN 2181-2357

XALQARO NAZARIY VA AMALIY TADQIQOTLAR
JURNALI

INTERNATIONAL
JOURNAL OF
THEORETICAL AND
PRACTICAL RESEARCH

JURNAL FARG'ONA POLITEXNIKA
INSTITUTI HAMKORLIGIDA NASHR
ETILADI



VOLUME 2,
Issue 5
2022

ISSN 2181-2357





«Al-Ferganus» MChJ Nashriyot markazi.
A. M. Abdullayev
«Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali»
Ilmiy jurnal.
2021 yil noyabrdan beri nashr etilmoqda.
Oyiga bir marta nashr etiladi. 16+

2-tom, 5-son.

May 2022 y.

Tahririyat kengashi raisi Salomov O'ktam Raximovich, Rector of FerPI

Bosh muharrir K. I. Kurpayanidi

Tahririyat hay'ati: A.M.Abdullaev, M.S.Ashurov, E.A.Mominova, K.X.Abduraxmonov, A.N.Asaul, A.V.Burkov, U.V.G'ofurov, M.A.Ikromov, D.Kudbiev, E.S.Margianiti, B.Obrenovich, L.NA.Sultonov, L.NA. , A.Xasanov, Sh.T.Karimov, Sh.Sh.Salixanova, U.K.Alimov, S.M.Turabdjano, B.A.Alimatov, R.J.Tozhiyev, A.A.Risqulov, B.M.Tursunov, A.A.Shermukhamedov, Y.S.A. H.A.Akramov, M.X.Hakimov, Sh.M.Iskandarov, Z.M.Sobirova, A.M.Muxtorova, L.M.Babaxo 'jaeva..

Tahririyat manzili: 150107

Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86 -
uy

Тел. +998971003888

<https://alferganus.uz/en/site/index>

E-mail: alferganus.ltd@gmail.com



IF(Impact Factor) 8.7 / 2021
<http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357>



TOGETHER WE REACH THE GOAL
SJIF 2022: 5,962
<http://sjifactor.com/passport.php?id=21994>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida ro'yxatga olingan.

Ro'yxatga olish № 1189 Berilgan sanasi: 17-06-2021.

Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali Crossref, OpenAIRE, Google Scholar bazalariga kiritilgan.

Impact-faktor 2021 Evaluation Pending



CC litsenziyasi turi: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

Jurnal jahon va mintaqaviy darajada fan va amaliyotning rivojlanish masalalariga bag'ishlangan.

Jurnal olimlar, o'qituvchilar, doktorantlar, talabalar uchun mo'ljallangan.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali.

2022. T. 2. №5. <https://alferganus.uz>

ISSN 2181-2357



9 772181 235007 >

© «Al-Ferganus» nashriyot markazi,
2022 Farg'ona, O'zbekiston



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)



Publishing Center «Al-Ferganus» LLC.

A. M. Abdullaev

“International journal of theoretical and practical research”

Scientific Journal.

Published since November 2021.

Schedule: monthly. 16+

Volume 2, Issue 5

May, 2022.

Chairman of the Editorial Board Salomov Uktam Rakhimovich, FarPI rektori

Editor-in-chief K. I. Kurpayanidi

Editorial Board: A. M. Abdullaev, M. S. Ashurov, E. A. Muminova, K. Kh. Abdurakhmanov, A. N. Asaul, A. V. Burkov, U. V. Gafurov, M. A. Ikramov, D. Kudbiev, E. S. Margianiti, B. Obrenovich, L. Ivars, K. E. Onarkulov, N. A. Sultanov, A. Khasanov, Sh. T. Karimov, Sh. Sh. Khamdamova, D. S. Salikhanova, U.K. Alimov, S.M. Turabdzhanyov, B.A. Alimatov, R.Zh. Tozhiev, A.A. Riskulov, B.M. Tursunov, A.A. Shermukhamedov, S. F. Ergashev, Y.S. Abbasov, Kh.A. Akramov, M.Kh. Khakimov, Sh.M. Iskandarova, Z.M. Sobirova, A.M. Mukhtarova, L.M. Babakhodzhaeva.

Address of the editorial office:

150107

Fergana city, Fergana str., 86.

Phone +998971003888

<https://alferganus.uz/en/site/index>

E-mail:

alferganus.ltd@gmail.com



IF(Impact Factor) 8.7 / 2021
<http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357>



TOGETHER WE REACH THE GOAL
 SJIF 2022: 5.962
<http://sjifactor.com/passport.php?id=21994>

Registered with the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.
 Registration No. 1189 dated 17-06-2021.

The journal "International Journal of Theoretical and Practical Research" is included Crossref, OpenAIRE, Google Scholar.

Impact-factor 2021 Evaluation Pending



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

The Journal addresses issues of global and regional Science and Practice. For scientists, teachers, doctoral students, students.

(2022). International journal of theoretical and practical research, 2(5).

<https://alferganus.uz>

ISSN 2181-2357



© Publishing Center«Al-Ferganus»,
 2022, Fergana, Uzbekistan



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)



Издательский центр «Al-Ferganus» ООО.

А. М. Абдуллаев

«Международный журнал теоретических и практических исследований»

Научный журнал.

Издается с ноября 2021 г.

Выходит один раз в месяц. 16+

Том 2, Номер 5.

Май 2022 г.

Председатель редакционного совета Саломов Укташ Рахимович, ректор ФерПИ

Главный редактор К. И. Курпаяниди

Редакционная коллегия: А.М.Абдуллаев, М.С.Ашуров, Э.А.Муминова, К.Х.Абдурахманов, А.Н.Асаул, А.В.Бурков, У.В.Гафуров, М.А.Икрамов, Д.Кудбиев, Э.С.Маргианити, Б.Обренович, Л.Иварс, К.Э.Онаркулов, Н.А.Султанов, А.Хасанов, Ш.Т.Каримов, Ш.Ш.Хамдамова, Д.С.Салиханова, У.К.Алимов, С.М.Турабджанов, Б.А.Алиматов, Р.Ж.Тожиев, А.А.Рискулов, Б.М.Турсунов, А.А.Шермухамедов, С.Ф.Эргашев, Ё.С.Аббасов, Х.А.Акрамов, М.Х.Хакимов, Ш.М.Искандарова, З.М.Собирова, А.М.Мухтарова, Л.М.Бабаходжаева.

Адрес редакции: 150107

г. Фергана, ул. Ферганская, 86

Тел. +998971003888

<https://alferganus.uz/en/site/index>

E-mail: alferganus.ltd@gmail.com



IF(Impact Factor) 8.7 / 2021
<http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357>



TOGETHER WE REACH THE GOAL
SJIF 2022:5,962
<http://sjifactor.com/passport.php?id=21994>

Зарегистрирован в Агентстве информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан.
Регистрации № 1189 от 17-06-2021.

Журнал «Международный журнал теоретических и практических исследований» включен в Crossref, OpenAIRE, Google Scholar.

Импакт-факторы журнала: 2021 Evaluation Pending



Тип лицензии CC поддерживаемый журналом: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

В журнале рассматриваются вопросы развития мировой и региональной науки и практики. Для ученых, преподавателей, докторантов, студентов.

Международный журнал теоретических и практических исследований. 2022. Т. 2. №5.

<https://alferganus.uz>

ISSN 2181-2357



9 772181 235007 >

©Издательский центр «Al-Ferganus»,
2022, Фергана, Узбекистан



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)



TABLE OF CONTENTS

Iqtisodiy fanlar / Economic Sciences/ Экономические науки

- | | | |
|----|---|----|
| 1. | Saidakhror Saidakhmedovich Gulyamov, Abbas Tairovich Shermukhamedov, Mukhittdinova M. H. <i>Development of artificial intelligence in Uzbekistan</i> | 7 |
| 2. | Gulnara Mukhammedzhanovna Davlyatova, Sevarakhon Hasanovna Abdullaeva <i>Ensuring the economic stability of textile enterprises based on the development of inter-sectoral relations in the economy</i> | 18 |
| 3. | Julia Mikhailovna Nikiforova <i>Intellectual capital navigator as a resource assessment tool business entity</i> | 30 |
| 4. | Nozimjon Nabijonovich Rasulov <i>Problems of improving the use of marketing research in the footwear market</i> | 58 |

Pedagogika fanlari / Pedagogical sciences/ Педагогические науки

- | | | |
|----|---|----|
| 5. | Farkhad Musazhonovich Nishonov <i>Problems of organization of individual works of students in mathematics</i> | 75 |
|----|---|----|

Texnik fanlar / Technical sciences / Технические науки

- | | | |
|----|--|----|
| 6. | Nuritdin Rakhimovich Shukurov, Rakhmatulla Tangrikulovich Khalikov <i>Ways to reduce water consumption during car maintenance</i> | 81 |
| 7. | Akmaljon Akhmadzhonovich Urinov <i>Review of the textbook of Candidate of Economic Sciences, Associate Professor of the Department of Economics of the Fergana Polytechnic Institute Kurpayanidi K.I. and Doctor of Economics, Acting Professor Muminova E.A. edited by Doctor of Economics, Professor of the Tashkent State University of Economics Ikramov M.A. "Fundamentals of Economic knowledge" for students of the joint study project Novosibirsk State Technical University of higher education 5311000 Automation and control of technological processes and production (by industry)</i> | 87 |

E'lon / Reklama / Advertisement

- | | |
|-------------------------|----|
| <i>Advertisement</i> | 89 |
| <i>Our publications</i> | 96 |





International journal of
theoretical and practical
research

Scientific Journal

Year: 2022 Issue: 5

Volume: 2

Published:

31.05.2022

<http://alferganus.uz>

Citation:

Davlyatova, G. M., Abdullaeva, S.H. (2022). Ensuring the economic stability of textile enterprises based on the development of inter-sectoral relations in the economy. *SJ International journal of theoretical and practical research*, 2 (5), 18-29.

Davlyatova, G. M., Abdullaeva, S.X. (2022). Iqtisodiyotda tarmoqlararo munosabatlarni rivojlantirish asosida to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash. *Nazariy va amaly tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2 (5), 18-29.

Doi:

<https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6945580>



QR-Article

Gulnara Mukhammedzhanovna

Davlyatova

associate professor of the
"Economics" department, PhD
Fergana Polytechnic Institute

Sevarakhon Hasanovna Abdullaeva

Senior Lecturer of the Department of
Accounting and Audit, PhD
Fergana Polytechnic Institute

UDC 338.45

ENSURING THE ECONOMIC STABILITY OF TEXTILE ENTERPRISES BASED ON THE DEVELOPMENT OF INTER-SECTORAL RELATIONS IN THE ECONOMY

Abstract: By establishing interdependence (communication) of industries that depend on each other's production activities in the country, there is an opportunity to create a special type of innovation - "gross innovative product" - that can effectively affect the entire chain of added value. Based on the inter-network balance, it is possible to evaluate the interaction of networks. Also, it will be possible to reduce the necessary expenses for the organization of scientific research and experimental design work and for improving the qualifications of personnel employed in the production process. As a result of cross-industry cooperation, the conditions for attracting investments, the process of distribution of investments by spheres of activity will be improved, and high-quality human capital will be formed.

Key words: network, inter-sectoral balance, Leontev model, gross innovative product, investment multiplier

IQTISODIYOTDA TARMOQLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)



Gulnara Muxammedjanovna Davlyatova

"Iqtisodiyot" kafedrasи dotsenti, i.f.n.,

Farg'ona politexnika instituti

Sevaraxon Xasanovna Abdullaeva

"BH va A" kafedrasи katta o'qituvchisi, PhD

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: Mamlakatda o'zaro bir birining ishlab chiqarish faoliyatiga bog'liq bo'lgan tarmoqlarning o'zaro bog'liqlikni (aloqani) tashkil etish bilan qo'shimcha qiymatning butun zanjiriga samarali ta'sir ko'rsata oladigan innovatsiyani alohida turini – "yalpi innovatsion mahsulot"ni yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Tarmoqlararo balans asosida tarmoqlarning o'zaro ta'sirini baholashni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan kadrlarning malakasini oshirish uchun zaruriy xarajatlarni kamaytirishga imkon yaratiladi. Tarmoqlararo kooperatsiya natijasida investitsiyalarni jalg' etish shart-sharoitlari, investitsiyalarni faoliyat sohalari bo'yicha taqsimlash jarayoni yaxshilanadi, yuqori sifatli inson kapitali shakllantiriladi.

Tayanch so'zlar: tarmoq, tarmoqlararo balans, Leontev modeli, yalpi innovatsion mahsulot, investitsiya multiplikatori.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ МЕЖОТРАСЛЕВЫХ СВЯЗЕЙ В ЭКОНОМИКЕ

Гулнара Мухамеджановна Давлятова

доцент кафедры "Экономика", к.э.н.,

Ферганский политехнический институт

Севараxon Xasanovna Abdullaeva

старший преподаватель кафедры "Бухгалтерский учет и аудит", PhD

Ферганский политехнический институт

Аннотация: Путем установления взаимозависимости (связи) отраслей, зависящих друг от друга в производственной деятельности страны, появляется возможность создания особого вида инноваций - «валового инновационного продукта», способного эффективно воздействовать на всю цепочку создания добавленной стоимости. На основе межсетевого баланса можно оценить взаимодействие сетей. Также удастся сократить необходимые затраты на организацию научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ и повышение квалификации персонала, занятого в производственном процессе. В результате межотраслевой кооперации будут совершенствоваться условия привлечения инвестиций, процесс распределения инвестиций по сферам деятельности, формироваться качественный человеческий капитал.





Ключевые слова: сеть, межотраслевой баланс, модель Леонтьева, валовой инновационный продукт, инвестиционный мультиплликатор.

Kirish

O'zbekiston 2030 yilgacha bo'lган davr ichida sanoati rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lган turmush darajasi standartlariga (hayot darajasiga) ega mamlakat darajasiga chiqish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib quydi. Belgilangan maqsadga erishishdagi muvaffaqiyat ko'rsatkichlaridan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning o'sishi hisoblanadi, ushbu ko'rsatkich bugungi kunda aholining o'rtacha daromadi yuqori bo'lган o'rtacha statistik mamlakat darajasiga teng bo'lib, 2030 yilda iste'molchilarning xarid pariteti, xalqaro dollar va joriy narx darajasi kabi ko'rsatkichlarni e'tiborga olgan holda hisoblanganda 10600 AQSH dollarni tashkil etishi belgilangan. Buning uchun esa, YaIMning yillik 8 foizga teng bo'lган o'sish sur'atini ta'minlash zarur.¹

So'nggi 10 yillik makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning joriy tahliliga ko'ra mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 108 foizga teng. Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat alohida o'ringa ega bo'lган holda, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy drayver hisoblanadi. Xususan, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik sanoat, mashinasozlik va metalni qayta ishslash kabi sanoat tarmoqlari rivojlanishning asosi sifatida belgilangan. Mamlakatni rivojlantirishshning keyingi bosqichiga o'tish tarkibiy o'zgarishlarni va innovatsion rivojlanishni talab etadi, bularni amalga oshirish bilan esa O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar guruhibi kirib borishiga zamin yaratiladi.

O'tgan 20 yil mobaynida O'zbekistonda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligidan asta sekin yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'Imagan xom-ashyo va yarim-tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirildi, natijada esa mamlakatning rivojlanish (o'sish) modeli diversifikatsiyalandi. Ushbu holatda o'sish asosan kapital jamg'arishga asoslangan bo'lib, inson kapitalining sifati va jami omil unumdarligi kabi ko'rsatkichlar (tushunchalar) nisbatan ahamiyatsiz edi. Investitsiyalar sanoatning ustuvor tarmoqlariga, asosan, kapital va energiya sig'imi yuqori bo'lган tarmoqlarga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu vaziyatda xom-ashyoning jahon narxlaridagi ijobjiy tendentsiyalaridan samarali foydalanilgan. Natijada, mehnat sig'imi yuqori bo'lган, ekologik jihatdan toza sanoat tarmoqlari, Shuningdek, mikroiqtisodiyot va sanoatdagagi kichik xususiy korxonalar rivojlanmadи. O'z navbatida, amal qilgan o'sish modeli samarali va yuqori ish haqini ta'minlovchi barqaror ish o'rinalarini yaratishni chekladi.

Yuzaga kelgan salbiy natijalarni bartaraf etish, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga doir xatarlarni kamaytirish hamda sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo'yicha yangi davlat siyosati belgilab olindi. 2015 yilda Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan respublikani iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida tayanilishi lozim bo'lган O'zbekistonning ustuvor

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2016-йилда мамлакатни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг енг муҳим устувор йўналишларига бағишиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъruzasi. 2017-йил 14-январ. <https://nrm.uz>





tarmoqlarini aniqlash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi.² Ushbu tadqiqot taniqli iqtisodchilar Dj.Lin va S.Mong tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun sanoat tarmoqlarini aniqlash va ular faoliyatini yengillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan usulga asosan shakllantirilgan. Iqtisodchi olimlar tomonidan shakllantirilgan tadqiqot usuli uzoq davr mobaynida yuqori va barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini namoyon etgan mamlakatlarning tajribalariga asoslangan. Ushbu mamlakatlar tajribasiga ko'ra, mamlakatda ma'lum bir tarmoqni rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoit bo'lmasa yoki ushbu tarmoqni yetarlicha rivojlantirgan mamlakatlar kabi ustunlik mavjud bo'lmasa mamlakatning sanoatni rivojlantirish uchun olib borgan siyosati muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini hamda mamlakat sanoatining ustuvor tarmoqlarini aniqlash uchun amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra O'zbekiston to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, bolalar o'yinchoqlari va boshqa plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqarish, sport jihozlari, qurilish materiallari kabi yuqori mehnat sig'imini talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishni jadallashtirishi lozim. O'tgan davrda Respublikaning rivojlanish strategiyasi asosan kapital va resurs sig'imi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlarining rivojlanishi esa e'tibordan chetda qolgan. Natijada, ko'proq ish o'rinalarini yaratish imkoniyati mavjud bo'lмаган. Shuning uchun, industrial va innovatsion rivojlanishga o'tishda ishlab chiqarish jarayonida ham mehnatning ham kapitalning o'zaro faoliyatini ta'minlaydigan to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga urg'u bergen holda, barcha e'tiborni tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratish lozim. Bu esa o'z navbatida, barcha mavjud tarmoqlar o'rtasida o'zaro integratsiyani talab etadi (masalan, neft-kimyo sanoatidan boshlab sun'iy kimyoviy tolani ishlab chiqarishgacha).

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraktsiyalash dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi

Tarmoqlararo modellar assosida iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari V.V. Leontiev, X.B. Cheneri, P.G. Klark, R. Stoun, V. Izard, V.V. Kosova, A.G. Granberg, V.I. Suslova, N.N. Mixeeva, I.G. Nikolaeva, M.N. Uzyakova, M. Kuboniva, A.R. Sayapova, N.V. Suvorov va boshqa xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari mahalliy olimlarning xususan, Sh. Mustafaqulov, N.G'. Karimov, S.R. Umarov, M.Sh.Sharifxo'jaev, Sh.G.Yuldashev, N.R. Qo'zieva, A.Q.Qodirov, N.H.Haydarov, D.G'.G'ozibekov, X.X. Imomov, S.S.G'ulomov, A.H.Ergashev va boshqalarning ilmiy ishlarida alohida o'rinn tutadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida mamlakat iqtisodiётini rivojlantirishning xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan

² "2005-2016 йилларга мўлжалланган саноат ишлаб чиқаришининг ўсиши, таркибий ўзгаришлари, диверсификациялаш ва маҳаллийлаштиришда юзага келган муаммоларнинг асосий йўналишлари" хисоботи, ПМТИ. 2017. <https://ifmr.uz/ru>





bo'lsada, biroq mamlakatimiz iqtisodietini rivojlantirishda tarmoqlar kesimida tarmoqlararo balans modelidan foydalanish asosida tarmoqlar imkoniyatlarini hisobga olish, rivojlanishning ko'lmini oshirish masalalari chuqr o'rganilmagan.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda to'qimachilik sohasining o'ziga xosligi sanoatda birlamchi to'qimachilik ishlab chiqarishining ustunligi va xom ashyni qayta ishlash darajasining pastligi bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda xom ashyni chuqr qayta ishlash rentabelligi hamda paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yettinchi, eksport bo'yicha esa sakkizinchi o'rinni egallashiga³ qaramay, to'qimachilik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan paxta tolsi umumiylaj hajmining 40-50 foizdan ko'p bo'lman qismigina iste'mol qilinadi⁴. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat mavjudligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda sanoatda mahalliy xom-ashyni chuqr qayta ishlashga asoslangan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning roli toboro oshib bormoqda. Ularning yalpi sanoat mahsulotlaridagi ulushi so'nggi yillarda 5.6 % dan 11.6 % ga o'sdi, paxta tozalash sanoatining ulushi esa 11 % dan 4.8 % ga tushdi. 2020 yilda paxta tolasini ichki qayta ishlash hajmi 55 % gacha o'sdi.⁵

Sanoatni, umuman uning asosiy bo'g'ini hisoblangan to'qimachilik sanoatini yanada samarali rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, Shuningdek, xom-ashyni chuqr qayta ishlashni oshirishga va ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar turini ko'paytirishga bo'lgan talabning yuqoriligi tarmoqlararo tahlilni amalga oshirish hamda klasterlarni shakllantirish va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologik tsiklini takomillashtirish asosida sohaning rivojlanishini prognoz (bashorat) qilish zarurligini keltirib chiqaradi.

Texnologik tsikl mahsulot ishlab chiqarish jarayonining murakkabligiga va mehnat sig'imiga, texnika va texnologiyaning darajasiga, asosiy va yordamchi operatsiyalarning mexanizatsiyalashtirilganligiga va avtomatlashtirilganligiga, sifatli ish o'rinalarini tashkil etilganligiga bog'liq. Texnologik tsiklning samaradorligi esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

ishlab chiqarish jarayonini, ish o'rinalarini texnik va texnologik yangilash asosida mehnat unumdarligining oshishida;

ishlab chiqarish tsiklini kamaytirish orqali aylanma mablag'larning aylanish tezligini oshirishga erishishda;

ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish asosida mahsulot tannarxini pasaytirishida.

O'zaro bir birining ishlab chiqarish faoliyatiga bog'liq bo'lgan tarmoqlar ichki va tashqi bozor uchun raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaradigan klasterlarni yoki sanoat guruhlarini tashkil etish asosida birlashishlari mumkin. Tarmoqlararo o'zaro bog'liqlikni (aloqani) tashkil etish bilan qo'shimcha qiymatning butun zanjiriga samarali ta'sir ko'rsata oladigan innovatsiyani alohida turini – "yalpi innovatsion mahsulot" ni yaratish mumkin. Tarmoqlararo balans asosida tarmoqlarning o'zaro ta'sirini baholashni amalga

³ <https://sputniknews-uz.com/economy>

⁴ Xisob-kitoblar. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси маълумотларига асосан ҳакикатда ишлаб чиқарилган пахта матолари ва трикотаж матолари учун керакли пахта толаси мөъёrlари бўйича амалга оширилган.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси маълумотлари. <https://stat.uz/uz>





oshirish bilan yagona logistik “oyna” orqali moliyaviy oqimlarni va faoliyatni nazorat qilish mumkin. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonida band bo’lgan kadrlarning malakasini oshirish uchun zaruriy xarajatlarni kamaytirishga imkon yaratiladi. Tarmoqlararo kooperatsiya natijadasida investitsiyalarni jalb etish shart-sharoitlari, investitsiyalarni faoliyat sohalari bo’yicha taqsimlash jarayoni yaxshilanadi, yuqori sifatli inson kapitali shakllantiriladi.

“Leontev modeli” asosida tarmoqlararo balansdan foydalanish ishlab chiqarish va investitsiya multiplikatorlarini hisoblash imkonini beradi. Ishlab chiqarish multiplikatori to’qimachilik va boshqa sanoat mahsulotlarining ko’payishi natijasida umumiy iqtisodiyot yoki tarmoq yalpi mahsulotining hajmi qanday o’zgarishini ifodalaydi. Investitsiya multiplikatori esa tahlil qilinayotgan sektorda asosiy fondlarga yo’naltirilgan investitsiyalarning ko’payishi bilan sanoat mahsulotidagi o’zgarishlarni aks ettiradi. Ishlab chiqarish multiplikatorini hisoblashdan olingan natijalarni talqin qilish oson bo’lib, uning ta’sirini uchta asosiy tarkibiy qismga ajratish mumkin:

- sektordagi ishlab chiqarishning o’sishi bilan bog’liq bevosita ta’sirlar;
- tarmoqlararo aloqalar natijasida yuzaga kelgan qo’shimcha ta’sirlar;
- daromadlarni taqsimlash natijasida yuzaga kelgan ta’sirlar.

Leontev modelingning o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

o’zining ishlab chiqarish faoliyatiga ega va faqat o’ziga xos bo’lgan mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan alohida tarmoqlar mavjud bo’lgan iqtisodiyot tadqiq etiladi;

mahsulot ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar o’rtasidagi bog’liqlik chiziqli tenglamalar (chiziqli va doimiy texnologiyalar) asosida yoritiladi;

mahsulotlarga bo’lgan talabning vektori oldindan belgilangan deb qabul qilinadi, ya’ni modelda iste’molchilarga doir optimallashtirish masalalari mavjud emas;

mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ya’ni taklif iste’solchilar tomonidan shakllantirilgan talabga ko’ra belgilanadi;

muvozanat deb talab va taklifning qat’iy tengligi tushuniladi.

Xususan, $n+1$ sektori mavjud bulsin. Bu yerda, n tarmoq va yakuniy talab sektori (uy xo’jaliklari sektori), $x - i$ – sektorning ishlab chiqarish hajmi, y_i – yakuniy talab sektoriga (uy xo’jaliklariga) yetkazib beriladigan i sektor mahsulotlarining miqdori, $x_{ij} - j$ tarmoq uchun i tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun joriy xarajat sarfi:

$$X_i = \sum x_{ij} + y_i$$

Ushbu matritsa Leontevning teskari matritsasi yoki Leontev multiplikatori deb ham yuritiladi. Bu holda Leontevning teskari matritsasi umumiy xarajat koeffitsientlarining matritsasi bo’lib hisoblanadi. Matritsa elementlari-koeffitsientlari j tarmoqning bir birlik pirovar mahsulotini ishlab chiqarish uchun i tarmoqning yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlariga bo’lgan talabni ifodalaydi. Shunday qilib, matritsali multiplikator koeffitsientlari mahsulotning umumiy o’sishini ifodalagan holda, uning dastlabki manbai mahsulotlarga mavjud yakuniy talab ekanligini ham ifodalaydi.

Tarmoqlararo balans modelini shakllantirish dastlab tarmoqlarning xom-ashyo va boshqa materiallar sarf xarajatlarini hamda pirovard mahsulot ko’rsatkichlarini ifodalovchi “Xarajatlar-ishlab chiqarish” sxemasini tashkil etish asosida ishlab chiqiladi.





Xususan, to'qimachilik sohasi bilan mashinasozlik tarmog'i orasidagi bog'liqlikni ta'minlashga tegishli hisoblar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

| Tarmoqlar (Ishlab chiqaruvchi tarmoqlar) | Iste'molchi tarmoqlar To'qimachilik sanoati | Mashinasozlik sanoati | Pirovard mahsulot (ishlab chiqarishdan tashqaridagi iste'mol), mlrd so'm |
|--|--|-----------------------|---|
| To'qimachilik sanoati | 0,4 | 0,25 | 300 |
| Mashinasozlik sanoati | 0,5 | 0,4 | 200 |

Bu yerda, 0,4 va 0,25 – to'qimachilik sanoatining xom-ashyo va boshqa materiallar sarfi

0,5 va 0,4 – mashinasozlik sanoatining xom-ashyo va boshqa materiallar sarfi

Ushbu ko'rsatkichlar asosida tarmoqlarda ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan yalpi mahsulot hajmi, tarmoqlararo ta'minot, har bir tarmoqning sof mahsulot hajmini, Shuningdek, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan pirovard mahsulotga bo'lган talabning oshishi natijasida ishlab chiqarilishi zarur bo'lган mahsulot hajmini aniqlash mumkin.

Dastlab tarmoqlarning yalpi mahsulot hajmi aniqlanadi. Har bir tarmoqning yalpi mahsulotining hajmi Leontevning teskari matritsasidan foydalangan holda quyidagi ketma-ketlikda hisoblanadi:

$$X = (E - A)^{-1} U$$

Bu yerda, X – yalpi mahsulot vektori

A – to'g'ri (bevosita) xarajatlar matritsasi

U – pirovard mahsulot vektori (yakuniy iste'mol vektori)

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix}$$

a_{ij} – j – tarmoqning bir birlik mahsulotini ishlab chiqarish uchun i – tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulot sarfi

$$a_{11} = \frac{x_{11}}{x_1} \quad x_{11} = a_{11} X_1$$

$$A = \begin{pmatrix} 0,4 & 0,25 \\ 0,5 & 0,4 \end{pmatrix}, U = \begin{pmatrix} 300 \\ 200 \end{pmatrix}$$

$$E - A = \begin{pmatrix} 1 & 0 \\ 0 & 1 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} 0,4 & 0,25 \\ 0,5 & 0,4 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0,6 & -0,25 \\ -0,5 & 0,6 \end{pmatrix}$$

(E – A) uchun teskari matritsa shakllantiriladi:

$$(E - A)^{-1} = \frac{1}{(0,6 \times 0,6) - (0,25 \times 0,5)} \begin{pmatrix} 0,6 & 0,25 \\ 0,5 & 0,6 \end{pmatrix} = 4,25532 \begin{pmatrix} 0,6 & 0,25 \\ 0,5 & 0,6 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2,553 & 1,064 \\ 2,128 & 2,553 \end{pmatrix}$$

Hisoblangan to'liq to'g'ri xarajatlar matritsasidan foydalanim tarmoqlarning yalpi mahsulot vektorini aniqlanadi.

$$X = \begin{pmatrix} 2,553 & 1,064 \\ 2,128 & 2,553 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 300 \\ 200 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 765,9 + 212,8 \\ 638,4 + 510,6 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 978,7 \\ 1149 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} X_1 \\ X_2 \end{pmatrix}$$

Bu yerda, X_1 – birinchi tarmoq yalpi mahsulotining hajmi

X_2 – ikkinchi tarmoq yalpi mahsulotining hajmi





Demak, har bir tarmoq o'zaro xom-ashyo va boshqa materiallarni sarfi qilgan holda bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi sifatida ishtirok etib mos ravishda 978,7 va 1149 mlrd. so'mga teng bo'lgan yalpi mahsulotni ishlab chiqaradi.

Tarmoqlararo balans modeli moddiy ishlab chiqarishning har bir tarmog'idagi yillik mahsulot hajmining boshqa tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishini ifodalab, ma'lum bir tarmoq mahsulotining o'sha tarmoqning o'zida hamda boshqa tarmoqlarda iste'mol qilingan miqdorini ko'rsatadi. SHunga ko'ra, yuqorida hisoblangan ikki tarmoq ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'zaro tarmoqlardagi taqsimotini aniqlaymiz.

$$x_{ij} = a_{ij} X_j$$

$$x_{11} = a_{11} \times X_1 = 0,4 \times 978,7 = 391,489$$

$$x_{12} = a_{12} \times X_2 = 0,25 \times 1149 = 287,25$$

$$x_{21} = a_{21} \times X_1 = 0,5 \times 978,7 = 489,35$$

$$x_{22} = a_{22} \times X_2 = 0,4 \times 1149 = 459,6$$

